

IJTIMOY XIZMATLARNI RAQAMLASHTIRISHDA AXLOQ-ODOB QOIDALARI MASALASI

Normamatova Maxsuda Nurmamatovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori

Karimov Odiljon Ikramovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Ushbu maqola virtualistikaning axloqiy jihatlarini ochib bergan. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarda virtual madaniyat uning ijtimoiy hayotga ta'siri to'g'risida ilmiy ma'lumot berilgan. Ijtimoiy hayotni bugungi kurinishlari ya'ni virtual jamiyat, virtual realliklar ularning bugungi kun ijtimoiy jarayonlarga ta'siri masalasi keng bayon etilgan.

Kalit so'zlar: virtualistika, bilish, axloq, virtual reallik, virtual obraz, axborot.

Аннотация. В данной статье раскрыты этические аспекты виртуалистики. Виртуальная культура среди молодежи в информационном обществе научно информирована о ее влиянии на социальную жизнь. Широко объясняются сегодняшние взгляды на социальную жизнь, то есть на виртуальное общество, виртуальные реальности и их влияние на сегодняшние социальные процессы.

Ключевые слова: виртуалистика, знание, этика, виртуальная реальность, виртуальный образ, информация.

Summary. This article reveals the ethical aspects of virtual science. Virtual culture among young people in the information society is scientifically informed about its impact on social life. Today's views on social life, that is, on virtual society, virtual realities and their influence on today's social processes are widely explained.

Key words: virtualistics, knowledge, ethics, virtual reality, virtual image, information.

Insoniyat globallashtirilgan, axborotlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tuzilmalardan iborat bo'lgan postindustrial sivilizatsiya dunyosiga kirib keldi. Bu sivilizatsiya o'tgan asrda jamlangan barcha kreativ potentsiallarni ishga solib, ma'lum jihatdan inqilobiy bo'lgan postnoklassik madaniyat, fan va texnologiyaga asoslangan innovatsion olamni bunyod etmoqda. "Ayni paytda butun mamlakat miqyosida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi, kompyuter savodxonligi, media savodxonligi, kommunikativ savodxonlik, texnologik innovatsiyalarga ijobiy munosabatni shakllantirish ham muhim vazifa sanaladi"[1]. Bu vazifalarni amalga oshirishda axborot to'plash, saqlash va uzatish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni bilan bog'liq axloqiy mezonlar va ijtimoiy-huquqiy asoslarni ilmiy tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

A.Bergson tomonidan “Virtual faoliyat” singari tushunchalar muomalaga kiritilgan falsafiy maqolalar paydo bo‘ldi.[2]. dramaturg va teatr arbobi A.Arto teatrni “personajlar, obyektlar, qiyofalar rivojlanadigan – umuman teatrning virtual voqyeligini belgilaydigan sarob...” tarzida tasvirlaydi.[3] Teatrda muallifning uydirmasi bo‘lgan voqyelikga kiruvchi tomoshabinlarning virtual mikro voqyeliklari birgalikda mavjud va bir-biriga singan holda birdaniga va uzoq bo‘lmagan muddatga ular uchun hukmron voqyelikka aylanadi. Kompyuterli virtual reallikning funksional konsepsiyasi ildizlari quyidagilardir:

1) Kompyuterning funksiyalari dasturiy ta‘minot takomillashuviga bog‘liq ravishda tubdan o‘zgarishga qodirligi.

2) Virtual reallik inson imkoniyatlari uchun elektron informatsiya dunyosida mo‘ljol olishning eng maqbul, ko‘proq “tabiiy” usulidir.

Kompyuterdagi virtual voqyelikda aks etirish jarayonlari multemedia rejimida sodir bo‘ladi, ya‘ni kadrni to‘xtatish, sekinlatish, tezlatish, oldinga o‘tkazish orqaga qaytish va tanafus qilish mumkin, harakat esa mutloq o‘zgaruvchanlik maqomiga ega bo‘lmaydi. Rivojlanish tegishicha inversion bo‘lishi, ya‘ni orqaga qaytarilishi mumkin: o‘zaro ta’sirlarning rang-barangligi biz ko‘nikkan dunyoviy sababiyat sharoitlarida ma‘lum bo‘lgan sirli xossalarini nomoyon etishi mumkin.

A.A.Skvorsova axborot axloq bilan chambarchas bog‘liq, virtual kommunikasiyalarning keng tarqalishi va jamiyatda noaniq axloqiy baholarni olish bilan bog‘liq bo‘lgan turli jarayonlarni o‘rganish majmuini anglatadi. Biz global tarmoqda mavjud bo‘lgan va ixtiyoriy ravishda qabul qilingan standartlar asosida boshqariladigan jamoalarning o‘zini o‘zi boshqarish amaliyoti haqida ma‘lumotga ega bo‘lamiz[4]. Yoshlarni faqat o‘z tashvishi va muammolari qiziqtirishi, o‘z ehtiyojlarini qondirish bilan ovora bo‘lishi, asl sababini payqamasdan bir simulyakr ortidan boshqasiga ergashib vaqt o‘tkazishi virtual reallik texnologiyalari yaratuvchilariga katta foyda keltirmoqda.

Postindustrial jamiyat, informatizasiya, globalizasiya jarayonlari foydani o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan, asosan moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy hamda sinfiy qiyofasini yo‘qotgan, o‘z maqsadlari yo‘lida har qanday g‘oyani qo‘llashga tayyor turgan shaxslarni yaratdi. Bunday salbiy holatlar vatanimizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Buning uchun kurashish, zarur bo‘lsa barcha imkoniyatlarni ishga solish lozim. Birinchi Prezidentimiz “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asarida yozadilarki, “Bugungi kunda inson ma‘naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arziyas tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globalashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hyech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”[5]. Bundan kelib chiqib, hozirda har qanday axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega, shunday ekan endigina ongi, dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodni ma‘naviy olami daxlsizligini asrash muammo bo‘lib ko‘pchilikni o‘ylantirayotir.

Axborot urushida O‘zbekiston o‘zining maqbul yo‘lini tanlab olgan bu yo‘l odamlarni fikrini boshqarishni emas, balki ularda milliylikni uyg‘otish kerakligiga

e'tibor qaratadi va yosh avlodda mustaqil dunyoqarashni shakllantirishni asosiy vazifa deb biladi. Axborot maydonida nafaqat omon qolishni, balki yengib chiqishni asosiy sharti, erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas'ullikni to'g'ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. Shu boisdan ham hozirda "Dunyoda globallashuv davom etayotgan va axborot makonida o'zaro kurash kuchaygan sharoitda mudofaa tizimida axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi sohasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, axborot-kommunikasiya makonida davlat suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi mafkuraviy va psixologik harakatlarning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish alohida ahamiyat kasb etmoqda"[6].

Darhaqiqat, globallashuv tufayli "ommaviy madaniyat" tahdidining oldini olishga qaratilgan mafkuraviy usullar, ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar, texnologik asoslar, intellektual salohiyat, axborot bazasi, xalqaro institusional tizimni rivojlantirish davr talabiga aylandi. Bu global ma'naviy inqiroz muammolarini hal qilishda har tomonlama va tizimli yondashishni, alohida davlatlarning utilitar-merkantil milliy egositik etnoegosentrik manfaatlarining mutlaqlashuvi fonida xalqaro institusional tizim, huquqiy makon yaratishni taqozo yetadi"[7].

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ayni paytda butun mamlakat miqyosida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o'rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovasiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi"[8]. Virtual reallik insonlarga virtual va imkonsiz imkoniyatlar mavjud bo'lgan boshqa dunyoga kirishga imkon beradi, aql bovar qilmas imkoniyatlarni yaratadi. Virtual reallik teatr kabi to'liq immersiv tizimda foydalanuvchilarni reallik bilan deyarli bir xil bo'lgan virtual muhitda ko'rish, eshitish, sezish va boshqa tuyg'ularni his qilishga chorlaydi.

Virtual olam o'yinlar bilan cheklanib qolmay, taqdimotning dolzarbligi darajasiga qarab, kompyuter konferensiyalari va matnli suhbatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shu boisdan ham M.N. Normamatova "XX asrni ikkinchi yarmida bir-biridan mustaqil ravishda fan va texnikaning bir nechta sohalarida virtuallik g'oyasi vujudga keldi. Virtual obyektlardan tashkil topgan virtuallik olamiga kirish va uni tadqiq qilish boshlandi. Fizikada virtual zarrachalar, meteorologiyada virtual harorat, ergonomikada virtual holat, psixologiyada virtual qobiliyat, san'atshunoslikda virtual teatr, antropologiyada virtual inson, kompyuter texnologiyasida komp'yuterli virtual reallik va boshqa tushunchalarni ishlab chiqish virtualistik bilish obyekti ustida epistemologik refleksiyaning amalga oshirish imkoniyatini bermoqda"[9] deb ta'kidlaydi.

Shu o‘rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning fikriga e‘tibor qaratish zarur: “Biz bir narsani hyech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba‘zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”[10].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni axborot tahdidlaridan asrashda ularning internet savodxonligini oshirib borish, virtual makondagi qiziqishlarini muntazam ravishda o‘rganib borish, axborot muhitidagi ijtimoiy ongini monitoring qilish tizimini shakllantirish, virtual xizmatdagi qiziqish va ehtiyojlarini o‘rganish, ularning ongiga salbiy ta‘sir etuvchi yot va buzg‘unchi g‘oyalar, “ommaviy madaniyat”ning zararli ko‘rinishlaridan asrashda ularga to‘g‘ri ma‘lumotlarni yetkazish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 191-192.
2. Бергсон А. Творческая эволюция. М., 1998. С. 294.
3. Разлогов К. Арто А. // Пави П. Словарь театра. М., 1991. С. 403.
4. Скворцов, А. А. Этика: учебник для среднего профессионального образования / А. А. Скворцов. — 3-е изд., испр. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 322 с.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. –178 б.
6. Хайдаров К.А. Мудофаа тизимида ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми (очиқ манбалар мисолида). Сиёсий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент-2020. –Б. 5.
7. Кодиров Н. Ўзбекистон ёшларида ахборот маданиятини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили// фал.ф.б.фал.д. (PhD) Автореферат. – Самарқанд. 2021. – Б. 20-21
8. Мирзиёев Ш.Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 191-192.
9. Нормаматова М.Н. Виртуалистикада постноклассик эпистемология ғоялари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд 2018. –Б. 13.
10. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси . Халқ сўзи. 2017 йил 5 август.